

SO‘X DARYOSIDAN SUV OLUVCHI KANALLAR BOSHQARUVINI O‘RGANISH

Xoshimov Ilhomjon Inomovich

Ismoilov Sadirdin Isomiddinovich

Turdaliyeva Sojidabonu Rafiqjon qizi

ANNOTATSIYA

Maqolada So‘x daryosidan suv oluvchi kanallar va ularni boshqaruvi, ishchi xolati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Kanallarda oqib o‘tuvchi suv sarfi va limitlarini belgilash So‘x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasi tomonidan qanday belgilanishi to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqarma, so‘x daryosi, gidrouchastka, inshooat, boshqaruv, limit aqilli suv xisoblagichi

KIRISH

So‘x — Farg‘ona vodiysidagi sersuv daryo. Olay va Turkiston tizmalarining shimoliy yon bag‘irlaridan 5550 m cha balandlikdagi boshlanadi. Uzunligi. 124 km, havzasining maydoni 3510 km², suv havzasining balandigi 3480 m. Dalbek, Shudmon va Xo‘jaochkan soylari Zardoli qishlog‘i yonida birlashib, So‘x daryosini hosil qiladi. Yuqori qismida juda chuqur va tor (eni 4–10 m) daradan oqadi. Adirlar zonasiga chiqqach, daryo vodiysi kengayib 500 m ga yetadi. Shundan so‘ng daryo kengligi 70 km, uz. 50 km li, tosh va shag‘aldan tuzilgan yoyilma konus hosil qiladi. So‘x Farg‘ona vodiysiga oqib chiqqach, tarmoqlarga bo‘linib ketadi. Daryo muzlik va qordan to‘yinadi, chunki havzasiga yog‘adigan yillik yog‘in miqdorining 71% qor va 29%

yomg'irga to'g'ri keladi [11]. So'x daryosidan suv oluchi kanallarni So'x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasi tomonidan boshqariladi.

So'x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish soxasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish xamda suv xo'jaligi ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF 6200- son Farmoni xamda "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi PQ 5055- son qarori xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-xuquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2018 yil 3-iyuldagi 500- sonli qarori asosida tashkil etilgan. So'x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasi Sirdaryo-So'h irrigatsiya tizimlar havza boshqarmasi xuzurida bo'lib suv resurslarini boshqarish va undan foydalanishni tartibga solish bo'yicha tarkibiy tizimi hisoblanadi. O'z faoliyati jarayonida havza boshqarmasi va suv xo'jaligi vazirligiga bo'ysunadi. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlarga, O'zbekiston respublikasi Oliy Majlis palatalarining Qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek suv Xo'jaligi vazirligi va havza boshqarmasining bo'yruqlariga, hamda ushbu ustavga amal qiladi. Boshqarma o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi davlat xokimiyati organlari va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy xisoblanadi. Boshqarma yuridik shaxs xisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muxrga va ish blankalariga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligida g'aznachilik shaxsiy hisob raqamlarga, banklarda milliy va xorijiy hisob raqamlarga ega [1.2.4.5.6].

ASOSIY QISM

So‘x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasi O‘zbekiston, Oltiariq, Uchko‘prik, Dang‘ara, Rishton, Bog‘dod, Buvayda tumanlari irrigatsiya bo‘limlariga va qisman Qizg‘iziston va Tojikiston Respublikalariga suv yetkazib beradi. Suv resurslarini boshqarib va tizimni takomillashtirib, ulardan tejamli va oqilona foydalanishni ta‘minlaydi, sug‘oriladigan yerlarning melorativ xolatini yaxshilaydi. Suv xo‘jaligi ob‘ektlari va gidrotexnika inshootlarini rekonstruksiya qiladi va zamonaviylashtirish choralarini ko‘radi. So‘x daryosi va uning atrofida xosil bo‘lgan, sel va toshqin suvlarni betalofat o‘tkazib yuborish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilaydi xamda uni amalga oshiradi. Suv resurslaridan foydalanishni taxlil qiladi va ma‘muriy tumanlar bo‘yicha suv berish limitlarini belgilaydi. So‘x daryosida kelayotgan va chiqib ketayotgan suv sarfini aniqlab, FIK ni aniqlash va filtratsiya va boshqa sabablarga ko‘ra yo‘qolib ketayotgan suv sarflarini aniqlab, ularga qarshi choralar-tadbirlar o‘tkazish ishlarini olib boradi.

So‘x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasi Sirdaryo-so‘x irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi xuzurida bo‘lib, suv resurslarini boshqarish va undan samarali foydalanishni tartibga solish tuman irrigatsiya bo‘limlariga So‘x daryosi hamda Katta Farg‘ona kanalidan berilayotgan suvlarni limit asosida adolatli taxsimlab boradi. Boshqarma asosan Turkiston tog‘ tizmasidan boshlangan So‘x daryosini (uzunligi 94 km) boshqarib keladi, daryoning yillik o‘rtacha suv sarfi $44 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil etadi. Bu tog‘ daryolarning barchasi tog‘ning baland qismidagi abadiy qor va muzliklardan oziqlanib keladi. Daryo yillik oqadigan suvning minimal sarfi mart, aprel oylari va maksimal sarfi iyul, avgust oylariga to‘g‘ri keladi. 2021 yil nosug‘orish va sug‘orish mavsumida eng kam miqdori aprel oyida kuzatilib o‘rtacha sarf miqdori $4,9 \text{ m}^3/\text{s}$ tashkil qiladi. Daryoning eng ko‘p sarfi miqdori iyul oyda kuzatildi $Q_{\max}=120,3 \text{ m}^3/\text{s}$ tashkil qildi. O‘rtacha yillik sarf miqdori $33,43 \text{ m}^3/\text{s}$ bo‘lib daryoning bir yillik xajm miqdori 1 milyard 50 mlilon m^3 tashkil qiladi. Tuman irrigatsiya bo‘limlariga suv yetkazib berish maqsadida suvdan foydalanish uchun O‘zbekiston, Rishton,

Uchko‘prik, Bog‘dod, Buvayda Dang‘ara, Furqat hamda Katta Farg‘ona kanallari bilan nosug‘orish va sug‘orish mavsumlari uchun shartnomalar rasmiylashtirib sug‘orish mavsumi uchun limit 461,90 mln m³ suv olish limintlari belgilanib amalda 595,60 mln m³ % 114 suv etkazib berildi. 1,14 suvni Katta Farg‘ona kanalini to‘yintirish uchun 150 million m³ suv iyun oyida boshlab 5 oktyabrgacha suv bilan uzuliksiz ta‘minlab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF 0024-son farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligini rivojlantirish 2020-2030 yillarga mo‘jallangan konsepsiya farmon ijrosi bo‘yicha 2021 yilda suv sarfini onlayin kuzatish imkonini beruvchi suv o‘lchash po‘stlariga 44 dona “Aqqili suv qurilmalari” o‘rnatilgan. Aqilli suv hisoblagichlarini o‘rnatish suv safini aniq monitoring qilish va shu tariqa ortiqcha suv sarflanishining oldini olish, shuningdek ma‘lumotlarni masofadan turib yuborish imkonini beradi. Aqilli suv hisoblagichlari suv sarfini 2/3 barobarga kamaytiradi. Ushbu qurilmaning afzalligi shundaki, mazkur hisoblagichlarga ortiqcha aralashuv bo‘lmaydi, inson omili yoqoladi, korrupsion xolatlarga, qog‘ozbozlikka va suvni bexuda isrof bo‘lishiga barham beradi. Kunlik, oylik va yillik ma‘lumotlar bazaga kelib tushadi. Hisoblagichlar masofadan ma‘lumot uzatadi, faqatgina texnik nosozlik bo‘lganidagina muammonini xal qilish uchun mutaxassis ajratiladi. Qolgan payt esa vaqt ketkazib borilmaydi. Avval daxanada suv o‘lchab, suv berayotgan xodimlar vaqtini boshqa foydaliroq ishlarga sarflaydi.[7.8].

Agar shu Aqilli suv hisoblagichlarini Arc Gis bilan bog‘lansa ma‘lumotlarni foto va vidyo materiallarni monitoring qilish va kuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa kelayotgan suv sarfini boshqarish va behuda suv sarfi yo‘qolmasligiga va ishchi xodimlar faoliyatini ham yanada onsonroq bo‘lishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 dekabrda PF 4499-son “Qishloq xo‘jaligida suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish va suv olish mintaqalarini va ularni belgilangan tartibda to‘g‘ri o‘rnatish uchun STB gidrometrlari

suv o‘lchash postlarida muntazam ravishda suv o‘lchash ishlarini amalga oshirib borishmoqda. [3]

So‘x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasida bugungi kunda 155 donadan ziyod suv o‘lchash inshootlari bo‘lib shundan 35 dona o‘zgarmas o‘zan, 5 dona saniriy, xamda 115 dona latok parshala turdagilari mavjud. Boshqarmada xozirgi kunda ushbu gidropostlarda suv sarfini doimiy nazorat qilish bo‘yicha 11 nafar gidrometr lavozimidagi ishchi-xodimlar xizmat qiladi. Gidrometrlar tomonidan choraklik va yillik xisobotlar o‘z vaqtida havza boshqarmasiga taqdim etildi. Xozirgi kunda gidrometrlar tomonidan tanirovkadan o‘tgan vertushkalar yordamida gidropostlarda vegetatsiya va novegitatsiya davrida gidrometrlarning rejasiga asosan soylar va kanallarimizda suv o‘lchash ishlari olib borildi xamda suv sarfini o‘zgarishiga qarab gidropostlarni kordinatalariga o‘zgartirishlar kiritildi.. So‘x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasiga qarshli So‘x daryosi, soy, kanallar qirg‘oq bo‘yi muxofaza xududlaridagi er maydonlaridan oqilona foydalanish qishloq xo‘jalik ekinlar, mevali-manzarali daraxtlarni ekib yetishtirishga, qirg‘oq bo‘ylarini mustaxkamlash atrof-muxitni ekalogiyani tozaligini saqlashda. Ishchi guruxga yuklatilgan vazifalari So‘x daryosidan boshlab, oxirgi Sirdaryoga quyiluvchi Dang‘ara xududigacha bo‘lgan muxofaza yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazadi va doimiy nazoratda saqlaydi [10].

XULOSA

So‘x-Oqtepa irrigatsiya tizimi boshqarmasiga kelayotgan va chiqib ketayotgan suv sarflarini aniqlashni zamonaviy usullaridan foydalaniladi. Boshqarma So‘x daryosidan kelayotgan suvni tumanlarga va qisman qo‘shni davlatlarga xam oqilana tarzda yetkazib beradi. Kanallarda suv oqimi kuchli bo‘lganligi sababli gidrotexnik inshootlar va kanal va dambalarda doimiy ravishda ta‘mirlash ishlarini olib boradi. Boshqarma faoiyati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, xodimlarni monitoring qilish xam yo‘lga qo‘yilgan. Xozirda boshqarmani bosharuvini tubdan yanada takomillashtirish uchun loyiha ishlari olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI, 2017 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning 2021 yil 6 apreldagi Suvresurklaridan foydalanish soxasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish xamda suv xo‘jaligi ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF 6200- son

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 dekabrdagi PF 4499-son “Qishloq xo‘jaligida suvni tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ 5055- son qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-xuquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 3- iyuldagi 500- sonli qarori

6. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. Mirziyoev SHavkat Miromonovich. Toshkent 2017 y.

7. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo‘jaqulov R., Rahmatov M. Gidrotexnika inshootlari. 1-jild, darslik. T., “Vangi asr avlodi”, 2008.

8. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo‘jaqulov R., Rahmatov M. Gidrotexnika inshootlari. 2- jild, darlik T., “Ta‘lim” 2009.

9. M. Bakiev, N. Kaveshnikov, T. Tursunov Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish. Toshkent:, 2008.

10. Internetdan foydalanish www.Lex.uz, www.Ziyonet.uz, www.google.com